

**TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY O'QITISH  
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

*Negmatova Lochin Xayrullayevna  
Qashqadaryo viloyati Qarshi tuman  
34 – umumiy o'rta ta'lif maktab*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lif sifatini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish to'g'risida yuritilgan fikrlar bilan tanishasiz. Kalit so'zlar: Ta'lif sifati, Ta'lifni axborotlashitirish, Mutimediali taqdimot, interfaollik.

**Abstract:** In this article, you will get acquainted with the opinions about the use of modern technologies in improving the quality of education.

**Keywords:** Quality of education, Informatization of education, Multimedia presentation, interactivity.

**Аннотация:** В этой статье вы познакомитесь с мнениями об использовании современных технологий в повышении качества образования.

**Ключевые слова:** Качество образования, Информатизация образования, Мультимедийная презентация, интерактивность.

Yorqin kelajak buyuk ishlar talab etadi. Bugungi kunda buyuk kelajakni barpo etish har sohada yetuk, ona Vatanni sevadigan jonkuyar kadrlarni tayyorlash bilan boshlanadi. Har bir sohaning gullab yashnashining ortida ta'lif va tarbiya turadi. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning kattagina qismi aynan ta'lif va tarbiyaga qaratilgan desak adashmagan bo'lamiz. Ta'lif - rivojlangan, qudratli va buyuk davlat qurishning asosini tashkil etadi. Bu haqida muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ham quyidagilarni ta'idlaganlari o'rinnlidir. Ta'lif sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir. Ushbu gaplarning negizida chuqr ma'no kasb etibgina qolmay, bu gaplarni amalda joriy etish, hamda ta'lif sifatini yanada oshirish uchun prezidentimiz 2024 – yilni "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb nomlashni taklif etdi. Bu nafaqat 2024– yil uchun balki undan keyin ham ushbu yo'naliш ustuvor bo'lishini bilamiz. Bugungi kungacha ham ta'lif tizimida ko'plab o'zgarishlar yuzaga kelgani va bu o'zgarishlar yangi imkoniyatlar olib kelgani bilan e'toborlidir. Jamiyatning turli bo'g'inlarida bo'layotgan o'zgarishlar, bozor iqtisodiyoti va jamiyatdagi insonlarning dunyoqarashi o'sishi orqali jamiyat yanada yuksalib bormoqda. Bu yuksalishga katta hissa qo'shayotgan sohalardan biri bu albatta ta'lif tizimidir. Ta'lif sifatini yanada oshirish uchun esa shu bugunga qadar ko'plab ishlar amalga oshiriligan bo'lib, bu ishlar 2024– yilda yanada oshirilishi kutilmoqda. Ho'sh o'zi ta'lif sifatini oshirish uchun nimalar qilish yoki nimalarga

e'tibor berishmiz kerak. Buning uchun ko'plab omillarni sanab o'tish mumkin. Chunki ta'linda biz kichik detal deb qaraydigan ishlar kelajak uchun katta ta'sir o'tkazishi mumkin. Biz esa shu ko'plab omillardan biri bo'lgan ta'linda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish faktori haqida gaplashmoqchimiz. Ta'linda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish nafaqat ta'lim oluvchida balki ta'lim beruvchida ham katta imkoniyat hamda qulaylik olib keladi. Ta'limni axborotlashtirish – bugungi kundagi eng muhim tarmoqlardan biridir. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu borada, ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'linda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish masalasi ommalashmoqda. Hozirda barcha ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanmoqda. Bu esa, pedagoglarning o'z mehnat faoliyatiga yangicha yondashuvni talab etadi. Mamlakatimizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan vazifalardan kelib chiqib, davlat ta'lim standartlari hayotga tadbiq qilinilayotgan bir paytda, talim muassasalaridagi o'quvtarbiya jarayonini sifatli tashkil etish uchun o'qitishning texnik vositalarini yangi avlodini qollash o'qitish texnologiyasini yanada tezroq rivojlanishiga zamin bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim, shu jumladan o'rta umaumta'lim maktablaridagi ta'lim darajasi va sifati mamlakat taraqqiyoti – uning iqtisodiyoti, jahon hamjamiyatidagi o'rmini, mazkur yurtda yashaydigan insonlarning turmush darajasi, ijtimoiy yutuqlarini belgilaydi. Mamlakatimizda bo'lganidek eng yaxshi deb hisoblagan ta'lim darajasi aholining ijtimoiy, huquqiy hayot darajasi, kommunikatsion savodliligi, ta'lim olishga qiziqishning yuqoriligi bilan belgilanadi. Ta'lim darajasi va sifati ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchining shaxsiy sifatlari va kasbiy mahoratigagina emas, balki, aynan ta'lim tizimining asoslariga ham bog'liq bo'ladi. Ta'limning rivojlanish yo'li fanlar sonining va o'rganiladigan mavzularning ortishi hisobiga olinadigan bilimlar bilan kengayishi mumkin. Fanlar sonini kengaytirish, o'quvchilarga yuklamalarni ko'paytirish bilangina emas, balki o'qituvchi-pedagoglarning o'zlarini ta'lim berayotgan fanlariga har tomonlama va zamonaviy axborot texnologiyalariga tayangan holda saboq berishlari uchun ularning malakalarini oshirib borish ham muhim omildir. Ta'limni rivojlantirishning — intensiv yo'li, birinchidan, ta'lim metodini o'zgartirishni, qo'shimcha bilim berish yo'llarini izlashni talab etadi. Axborotlar bilan mustaqil ishlashni bilish, topish, anglab yetish va nihoyat mavjud axborotlar asosida yangi bilimlarni uyg'unlashtirishni bilish, mana shu o'quv jarayonini rivojlantirishning eng istiqbolli yo'li bo'lishi mumkin. Mana shunday yondashuvda ta'lim olish jarayoni markazining tayyor, to'g'ri ma'lumotlar olish va ularni yodlab olishdan axborotni izlash, qayta ishlab chiqish va bir shakldan boshqa shaklga aylantirish ko'nikmalarini egallashga yo'nalish sodir bo'ladi. Zamonaviy o'quvchilarining bilim olish manbalarini kuzatadigan bo'lsak, unda o'qituvchi eng

muhim manba bo‘lib qolayotganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Aynan ungagina muhim rol o‘quvchiga aniq bir fan bo‘yicha bilim berish, klassifikatsiyalash, o‘zgartirish tizimini berish roli yuklatiladi. Har bir fan bo‘yicha mazmunli qadriyatli yo‘nalishlar tizimini yaratish va o‘quvchiga yetkazish — o‘qituvchining eng asosiy funksiyasi hisoblanadi va shunday bo‘lib qolmoqda. Agar biz o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzuni klassik holda doskada yozib tushuntirmoqchi bo‘lsak biroz vaqt hamda energiya sarflaymiz. To‘g’ri boshqa hollarda ham energiya sarflaymiz ammo bu energiya sarfiga nisbatan olinayotgan foydali ish koeffitsenti turlicha bo‘ladi. Agar biz yangi mavzuni zamonaviy texnik qurilmalar jumladan, videoproektor, Elektron doska, lazerli ko‘rsatkich, kompyuterlar, smart doska, karnay va hokazolardan foydalangan holda tashkil etsak darsning o‘tilish ko‘rsatkichi va o‘quvchilarining yangi mavzuning tushunganlik sifati avvalgi holatdagiga nisbatan 30 – 65 % ga ko‘proq yaxshi natija beradi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ustunligi faqat bunda emas. Bu qurilmalar orqali o‘quvchilarga mavzuga ta’luqli biror rekvizit haqida to’liq va aniq ma’lumot olishi, voqeiylikni vizual ko‘rgan holda his etishi, mavzuga hos dunyoqarashni turli shakllarinin paydo bo‘lishi mumkin. Yana bir samarali jarayonlardan biri bu Multimediali taqdimotdir. Mutimediali taqdimot – bugungi kunda axborot taqdim etishning yagona va eng zamonaviy shakli hisoblanadi. Bu matnli ma’lumotlar, rasmlar, slayd-shou, diktor jo‘rligidagi ovoz bilan boyitilgan, videoparcha va animatsiya, uch o‘lchamli grafika tarzidagi dasturiy ta’milot bo‘lishi mumkin. Taqdimotning ma’lumot taqdim etishning boshqa shakllaridan asosiy farqi ularning mazmunan boyitilganligi va interfaolligidir, ya’ni belgilangan shaklda o‘zgarishga moyilligi va foydalanuvchi faoliyatiga munosabatini bildirishidir. Bundan tashqari, taqdimot Sizning saytingiz kaliti ham bo‘lishi mumkin. Ya’ni Internetga chiqish imkoniyati mavjud bo‘lgan paytda sichqonchani bir martagina bosish orqali taqdimotni ko‘rib, kompaniya saytidan eng yangi ma’lumotni olish mumkin. Inson shaxsining o‘z-o‘zini boshqarish va ta’lim jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi tomonidan qo‘lga kiritilgan yutuqlar juda muhim hisoblanadi. Texnologiyalar takomillashib borgani sari o‘qituvchining roli ta’lim jarayonini boshqarish bo‘lib qoladi. Lekin bu holat o‘qituvchining ta’limdagi o‘rnini hech kamaytirmaydi va uni chetga surib chiqarmaydi. Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchi vazifasini tubdan o‘zgartiradi. An'anaviy ta’limda o‘qituvchinin vazifasi axborot berish bo‘lsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanganda bu vazifalarni kompyuter bajaradi o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchining anglash faoliyatini boshqarish, o‘quv jarayonini rejalashtirish va nazorat qilish bo‘lib qolaveradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: TDPU, "Nizomiy", 2003.
2. Sh. Shoyakubov, R. Ayupov. Interfaol ta'lim usullari. Toshkent, «Tafakkur-bo'stoni» nashriyoti, 2012 yil.
3. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma/ Innovatsion ta'lim texnologiyalari seriyasi. – T.: "Iqtisodiyot", 2012.
4. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. T. "O'qituvchi", 2004. Mavlyanov A. va boshqalar. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. «Tafakkur bo'stoni» nashriyoti, Toshkent, 2013.

**INTERNET MATERIALLARI:**

1. [www.president.uz](http://www.president.uz)
2. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
3. [www.venngage.com](http://www.venngage.com)
4. [www.bluleadz.com/](http://www.bluleadz.com/)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
6. [www.tami.uz](http://www.tami.uz)